

## O‘ZBEK ADABIYOTIDA TOG‘AY MURODNING “OTAMDAN QOLGAN DALALAR” ASARIDA O‘SMIRLAR OBRAZINING RIVOJLANISHI VA SHAKLLANISHI

**Kasimova Yulduz Malikovna**

Namangan davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi  
[kasimovayulduz1977@gmail.com](mailto:kasimovayulduz1977@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotining yirik namoyandasi Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” asarida o‘smirlar obrazining rivojlanishi va shakllanishi masalasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda asardagi o‘smir qahramonning ruhiy kechinmalari, hayotiy tajribalari, ichki ziddiyatlari hamda jamiyat va oilaviy muhit ta’sirida shaxs sifatida rivojlanish jarayoni badiiy jihatdan yoritiladi. Qahramon shaxsiy fazilatining shakllanishida ota merosi, mehnat tarbiyasi, yer va dalalar timsolining ramziy ma’nosi muhim omillar sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqolaning asosiy maqsadi Tog‘ay Murod ijodida o‘smirlik davrining badiiy talqinini ochib berish, o‘smir obrazining o‘ziga xos xususiyatlari, rivojlanish bosqichlari va ma’naviy-axloqiy shakllanishini aniqlashdan iborat. Shuningdek, tadqiqot orqali o‘zbek adabiyotida o‘smir obrazining milliy qadriyatlar va ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liqligi asoslab beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Tog‘ay Murod, “Otamdan qolgan dalalar”, o‘smir obrazi, ruhiy rivojlanish, shaxs shakllanishi, milliy qadriyatlar, mehnat tarbiyasi, o‘zbek adabiyoti, badiiy talqin.

**Аннотация:** В данной статье анализируется развитие и формирование образа подростка в произведении Тогай Мурода, выдающегося узбекского писателя, «Поля, оставшиеся от отца». Исследование художественно освещает психологические переживания, жизненный опыт, внутренние конфликты и процесс личностного развития героя-подростка в произведении под влиянием общества и семейной среды. Отцовское наследие, трудовое воспитание и символическое значение образа земли и полей рассматриваются как важные факторы формирования характера героя. Основная цель статьи – раскрыть художественную интерпретацию подросткового возраста в творчестве Тогай Мурода, выявить специфические особенности, этапы развития и духовно-нравственного формирования образа подростка. Исследование также обосновывает неразрывную связь между образом подростка в узбекской литературе и национальными ценностями и социальной средой.

**Ключевые слова:** Тогай Мурод, поля, оставленные отцом, образ подростка, духовное развитие, формирование личности, национальные ценности, трудовое воспитание, узбекская литература, художественная интерпретация.

**Abstract:** This article analyzes the development and formation of the image of adolescents in the work of Togay Murod, a major figure in Uzbek literature, “The Fields Left by Father.” The study artistically illuminates the psychological

experiences, life experiences, internal conflicts of the adolescent hero in the work, and the process of personal development under the influence of society and family environment. The father's heritage, labor education, and the symbolic meaning of the image of land and fields are considered to be important factors in the formation of the hero's character. The main purpose of the article is to reveal the artistic interpretation of adolescence in Togay Murod's work, to identify the specific features, stages of development, and spiritual and moral formation of the adolescent image. The study also substantiates the inextricable connection between the image of the adolescent in Uzbek literature and national values and the social environment.

**Keywords:** Togay Murod, "The Fields Left by Father", the image of a teenager, spiritual development, personality formation, national values, labor education, Uzbek literature, artistic interpretation.

## KIRISH

O'zbek adabiyotida o'smirlar obrazi faqatgina yosh avlodning psixologik holatini tasvirlabgina qolmay, balki milliy ma'naviyat, pedagogik holat, tarbiya, oilaviy qadriyatlar va jamiyatning ma'lum bir davrdagi ruhini aks ettirishda muhim badiiy vosita sifatida qaraladi. O'smirlik davri insonning shaxs sifatida shakllanishidagi eng muhim bosqichlardan biri bo'lib, adabiyotda bu davrga xos kechinmalar — izlanish, dunyoni anglash, ichki va tashqi ziddiyatlar, hayotiy haqiqat bilan to'qnashuv kabi jarayonlar serqirra badiiy talqinlarga sabab bo'ladi. Shu bois o'zbek adabiyotida o'smir qahramonlarning ruhiy kechinmalari, iztirob, qiyinchiliklari, ijtimoiy o'rni va axloqiy qarashlari xalqning turmush tarzi hamda tarixiy-madaniy muhit bilan uzviy bog'liq holda tasvirlanadi.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida o'zbek adabiyotida o'smirlar obraziga psixologik va ijtimoiy yondashuv kuchaydi. Ayniqsa qishloq hayotining murakkabliklari, oilaviy mas'uliyat, mehnat, yer egaligi, ota merosiga munosabat kabi mavzular o'smir ruhiyati orqali teran ochib berildi. Bu jarayonda Tog'ay Murod ijodi alohida o'rin tutadi. Uning "Otamdan qolgan dalalar" romani o'smir qahramonining shakllanishi, ma'naviy o'sishi va hayot haqidagi tasavvurlarining mustahkamlanish jarayonini chuqur haqiqat bilan yoritgan badiiy asarlardan biridir.

Asarda o'smir bola qishloq hayotining turli sinovlari, mehnat, mashaqqat va mas'uliyat, ota izidan borish va merosni asrash kabi masalalar bilan to'qnashib, o'zining "men"ligini anglaydi. Qahramonning ruhiy o'sishi faqat ichki kechinmalar orqali emas, balki atrof-muhit, oila a'zolari, qishloq odamlari, mehnat jarayoni va tarixiy sharoit ta'sirida bosqichma-bosqich shakllanib boradi. Ayniqsa, asarda o'smirning yerga bo'lgan mehr-muhabbati, otaga hurmat, qishloq hayotining adolat va mehnat tamoyillari bilan qorishgan milliy ruhiyati obraz rivojining asosiy negizidir.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, bugungi globallashuv davrida yoshlarning ma'naviy olamini, ularning jamiyatdagi o'rnini, oilaviy tarbiya va milliy qadriyatlar ta'sirini chuqur tahlil qilish muhim ilmiy vazifalardan biriga aylanmoqda. Tog'ay Murod asaridagi o'smir obrazini tadqiq etish o'zbek jamiyatidagi yoshlarning

ruhiy shakllanishi, ularning milliylikni anglash, o'sish jarayonini anglashga imkon beradi.

Mazkur maqola o'zbek adabiyotida o'smir obrazining umumiy xususiyatlarini aniqlash hamda "Otamdan qolgan dalalar" romanida ushbu obrazning rivojlanish bosqichlari, shakllanish omillari va badiiy talqin mexanizmlarini ilmiy tahlil qilishga qaratilgan.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbek adabiyotida o'smir obrazining badiiy talqini turli adiblar ijodida o'ziga xos shakllanib kelgan bo'lib, bu jarayon milliy ruh, qishloq hayoti, ma'naviy qadriyatlar va yosh avlodning ijtimoiy o'rni bilan chambarchas bog'liqdir. G'afur G'ulom[1] ijodida o'smir qahramonning sho'xligi, hayotga tashnaligi hamda ijtimoiy tengsizlik sharoitida o'sish jarayoni tasvirlangan bo'lsa, O'tkir Hoshimov[2] asarlarida o'smirning ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabati, oilaviy qadriyatlarga munosabati va ma'naviy shakllanishi alohida e'tirof etiladi. Xudoyberdi To'xtaboyev[3] ijodida esa o'smirning orzular olami, xayoliy tasavvurlari va hayot haqidagi tushunchalarning shakllanishi qiziqarli badiiy tarzda namoyon bo'ladi. Ushbu adabiy tajribalar o'zbek adabiyotida o'smirlik mavzusining ko'p qirrali ekanligini ko'rsatadi.

Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" asari mazkur an'analarning davomchisi bo'lish bilan birga, o'smirlikning milliylik asosidagi shakllanish jarayonini yanada chuqurroq tasvirlaydi. Tadqiqotlarda yozuvchining qishloq hayotini, mehnat va yerga bo'lgan mehrni asosiy badiiy tamoyil darajasiga ko'targani ta'kidlanadi. Asar yuzasidan olib borilgan tanqidiy izlanishlarda qahramonning ma'naviy o'sishi, ota merosiga munosabati, mas'uliyat hissining uyg'onishi va o'zligini anglash jarayoni o'zbek she'riyatiga xos asl holatni aks ettirish asosida talqin etilgani qayd etiladi. Biroq ko'p hollarda asarning umumiy mazmuni va g'oyaviy yo'nalishlari sharhlangan bo'lib, o'smir obrazining ichki o'zgarish bosqichlari, psixologik yuksalish jarayoni, jamiyat va muhitning shaxs shakllanishiga ta'siri yetarlicha chuqur o'rganilmagan. Shu sababli mazkur tadqiqot o'smir qahramonning rivojlanish o'zgarishini, uning xarakteridagi milliy va shaxsiy belgilarni badiiy manbalar asosida tahlil etishga yo'naltirilgani bilan muhimdir.

Tadqiqot jarayonida asosan badiiy matnning mazmuni, syujeti, psixologik qatlamlari va ijtimoiy kontekstini tahlil qilishga yo'naltirilgan ilmiy yondashuvlar qo'llanildi. Avvalo, o'smir qahramon obrazini o'zbek adabiyotidagi boshqa o'smir obrazlari bilan solishtirish orqali Tog'ay Murodning o'ziga xos talqini aniqlashga harakat qilindi. Bu qiyosiy tahlil o'smirlikning milliy badiiy talqinidagi o'xshash va farqli jihatlarni ko'rsatish imkonini berdi.

Shuningdek, psixologik tahlil yondashuvi qo'llanilib, o'smir qahramonning ichki kechinmalari, ruhiy holati, mehnat jarayoni va oilaviy muhit ta'sirida yuzaga keladigan his-tuyg'ularining o'zgarishi tadqiq etildi. Asarning kompozitsiyasi, ramziy obrazlari, portret va muhit tasviri kabi badiiy vositalar tuzilmali yondashuv asosida o'rganildi, chunki ularning har biri o'smir qahramonning shaxsiy rivojlanishi va dunyoqarashi shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Tadqiqotda tarixiy-adabiy kontekst ham inobatga olinib, asarda tasvirlangan ijtimoiy muhit, qishloq hayoti, yer va mehnat qadriyatlari kabi omillar o‘smirning hayotiy nuqtai nazariga qanday ta‘sir qilgani talqin qilindi. Badiiy matndan kelib chiqib, ma‘naviy qadriyatlar, ota merosining ramziy mazmuni, qishloq kishilarining xarakteri va ularning tarbiyaviy o‘rni talqiniy yondashuv asosida sharhlanib, o‘smir obrazining shakllanishi bilan bog‘liq xulosalar chiqarildi.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” [4] asarida o‘smir qahramonning rivojlanishi murakkab, ko‘p bosqichli jarayon sifatida badiiy talqin etilgan. Asarda markaziy qahramon Qodirning ichki dunyosi va ruhiy o‘sishi o‘smirlikdan yigitlikka o‘tish jarayonida yuzaga keladigan psixologik va ma‘naviy o‘zgarishlar orqali yoritiladi.

Qodirning xarakteri otaning mehnatsevarligi, adolatparvarligi va hayotiy tajribasi bilan uzviy bog‘langan. Ota merosini qadrlash, dalalarda mehnat qilish va jamiyatdagi ijtimoiy sinovlarni boshdan kechirish uning mas‘uliyat hissini kuchaytiradi va shaxs sifatida shakllanishiga turtki bo‘ladi. Shu bilan birga, asarda qishloq hayoti, do‘stlik va oilaviy munosabatlar, shuningdek, ijtimoiy adolatsizliklar qahramonning ruhiy o‘shida muhim omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

Dalalar timsoli o‘smirning ichki o‘sishi va ma‘naviy kamoloti uchun markaziy maydon sifatida ishlatilgan. Yer bilan bog‘liq mas‘uliyat, hayotiy tajriba va mehnat qadriyatlari orqali Qodir o‘zligini anglaydi va yetuk shaxs sifatida shakllanadi. Asarda o‘smirlikning psixologik murakkabligi, tashqi muhit ta‘siri va ichki kechinmalar uyg‘unligi bilan badiiy tarzda ochib berilgan.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Tog‘ay Murod o‘smir obrazini nafaqat hayotiy, balki ma‘naviy, psixologik va ijtimoiy omillar bilan uyg‘unlashtirib talqin qiladi. O‘smirlik davri o‘zbek adabiyotida ko‘pincha g‘oyaviy yoki soddalashtirilgan obrazlar orqali tasvirlangan bo‘lsa, T.Murodning asarida bu davrning murakkab va ko‘p qatlamli tabiati ochiq-oydin ko‘rsatiladi.

Qodirning shakllanishi mehnat, ota merosi, jamiyatdagi sinovlar va ijtimoiy adolat tuyg‘usi orqali kechadi. Bu jarayon o‘smirning ruhiy yetilishi, mas‘uliyat hissining kuchayishi va shaxs sifatida mustahkamlanishini ta‘minlaydi. Asardagi o‘smir obrazining o‘ziga xosligi uning hayotiy tajribalari bilan bog‘liq bo‘lib, boshqa o‘zbek adabiy qahramonlaridan farqli o‘laroq, u milliy qadriyatlar, mehnatsevarlik va jamiyat bilan munosabatni uyg‘unlashtiradi.

Shuningdek, asarda o‘smir ruhiyati bilan bog‘liq psixologik ziddiyatlar, ichki monologlar, xayoliy suhbatlar va o‘zini sinash jarayonlari badiiy vositalar orqali yoritilgan. Bu esa qahramonning yuksalish jarayonini haqiqiy va hayotiy qiladi. O‘smirlikning shakllanishi va rivojlanishiga ota merosi, dalalar va jamiyatning murakkab ijtimoiy-madaniy muhitining ta‘siri alohida e‘tibor talab qiladigan jihat sifatida namoyon bo‘ladi.

Natijada, “Otamdan qolgan dalalar” asaridagi o‘smir obrazining badiiy talqini nafaqat individual psixologik rivojlanishni, balki o‘zbek jamiyatidagi milliy qadriyatlar, mehnat tarbiyasi va adolat tuyg‘usini ham aks ettiradi. Bu jihatlar Tog‘ay

Murod ijodini o‘zbek adabiyotida o‘smir obrazini tasvirlashdagi muhim bosqich sifatida ko‘rsatadi.

### XULOSA

Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” asari o‘zbek adabiyotida o‘smir obrazining rivojlanishi va shakllanishini chuqur badiiy talqin qilgan asarlardan biri sifatida e‘tiborga loyiqdir. Asarda markaziy qahramon Qodirning ruhiy o‘ssishi, ichki kechinmalari va xarakterining shakllanishi ko‘p bosqichli va murakkab jarayon sifatida tasvirlangan. Uning shaxsiy rivojlanishi ota merosi, mehnat va dalalarga bo‘lgan mehr, jamiyatdagi ijtimoiy muhit va adolat tuyg‘usi bilan uzviy bog‘liq holda amalga oshadi.

Asarda o‘smirning ruhiy rivojlanishi faqat ichki kechinmalar orqali emas, balki tashqi muhit bilan ham o‘zaro munosabat, oilaviy va jamiyatdagi sinovlar orqali ham ifodalanadi. Dalalar timsoli va mehnat jarayoni o‘smirning ma’naviy va axloqiy shakllanishi uchun markaziy ramziy maydon bo‘lib xizmat qiladi. Qahramonning hayotiy tajribasi, ichki ziddiyatlari va o‘zligini anglash jarayoni badiiy vositalar orqali haqiqatga yaqin va hayotiy yoritilgan.

Shu tariqa, “Otamdan qolgan dalalar” asarida o‘smir obrazining o‘ziga xosligi, rivojlanishi va shakllanishi milliy qadriyatlar, ma’naviy meros va jamiyat ta’siri bilan bog‘liq holda tasvirlanadi. Bu esa Tog‘ay Murodning ijodini o‘zbek adabiyotida o‘smir psixologiyasini badiiy jihatdan yoritishdagi muhim bosqich sifatida qadrlashga imkon beradi.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. G‘afur G‘ulom. *Shum bola*. Toshkent: Sharq, 1962.
2. Hoshimov O‘. *Bahor qaytmaydi*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981.
3. Xudoyberdi To‘xtaboyev. *Sariq devni minib*. Toshkent: Yozuvchi, 1975.
4. Tog‘ay Murod. *Otamdan qolgan dalalar*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1998.